



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



SHOIR HAQIDA OLIM O'YLARI

A SCHOLAR'S REFLECTIONS ON THE POET

Saymuratova Ijobat Tursunqulovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Guliston davlat universiteti dotsenti

E-mail: [:saymuratovai@gmail.com](mailto:saymuratovai@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-4168-0636

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/NOUU9075](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/NOUU9075)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning shoir Azim Suyun shaxsiyati xususidagi mulohazalari, ijod namunalari tahlili, she'riyati va ijodiga bergan yuksak bahosi xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijod jarayoni, she'riyat, safar tavsifi, baxshiyona she'rlar, xalqchilik, realistik tasvir, peyzaj lirika, poemalar.*

Annotation. *This article discusses the comments of the famous literary scholar Qazoqboy Yuldoshev on the personality of the poet Azim Suyun, analysis of creative samples, his poetry and high assessment of his work.*

Keywords: *Creative process, poetry, travel description, Bakhshiyona poems, folklorism, realistic image, landscape lyrics, poems.*

Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshevning “Azim Suyun shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilar” nomli ilmiy-adabiy bitigi shoirning:

Shukur, nolimayman jon toleimdan,

Taqdir olib keldi bir muyulishga!

Va lekin hamon bir ilm-u tolibman,

Umrin yetarmikin shoir bo'lishga?

misralari bilan boshlanishida ulug' bir hikmat mujassam. Kompozitsiya vositasi sifatida keltirilgan mazkur epigraf Azim Suyundek odamning umr yo'li chizgilarini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish qudratiga ega bo'libgina qolmay, kitobxonga Azim Suyunning insoniy va ijodiy qiyofasini tanitadi. Ustoz tomonidan Azim Suyunni yaqindan bilish uchun uning birinchidan Ko'ngil, ikkinchidan Shaxsiyat, uchinchidan Ijod kabi uch manzilga safar qilganligi ta'kidlanadi.

Kitob arxitektonik tuzilmasiga ko'ra: Mundarija, O'zlik mulkiga yo'l, Azim Suyun qiziqarlari, O'zga yuraklarga tutashgan yo'llar nomli bo'limlardan tashkil topgan. Har bir bo'limda Azim Suyunning umr manzaralari bilan bog'liq bo'lgan jihatlar alohida sarlavhalangan.



Mundarija qismida bitikning Boshlanishi va olimning Azim Suyun bilan Tanishuvi aks etgan. Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshev so'zga, tushunchaga mehr bilan, muhabbat bilan, o'z tili o'zbek tilida so'z qo'llashga mas'uliyat bilan yondashadi. Mazkur bitikning muqaddimasini ham “Boshlanish” deb atalishi, tasvirlamoqchi bo'lgan har bir voqelikka turkiycha so'z bilan nom berishi Ustozning o'zbek tiliga bo'lgan muhabbatini ifodalagan. Olimning Barot Yarash orqali shoir bilan tanishuvi, shu bilan birgalikda o'rta maktab adabiyot dasturlarining yangi avlodini yaratish borasidagi izlanishlari, Azim Suyunning “Bahodirning qilichi”, “Oq va qora”, “Tutqun”, “Bahodirsiz kelar arg'umoq”, “Darada” kabi she'rlarini maktab adabiyot darsligining oltinchi sinfiga kiritilishi voqe qilinadi.

Kitobning “O'zlik mulkiga yo'l” nomli bo'limida keltirilgan dastlabki “Qaynoqlar” maqolasida shoir Azim Suyun xarakter xususiyatiga xos individual qirralarni, xususan, yoshligidan o'ta chaqqon, sezgir, sinchkov, g'oyat serg'ayrat va tinib-tinchimas, ko'zchil, ko'zlari burgutniki kabi o'tkir, o'zi bo'riday soq (hushyor) bo'lganligiga, shoirning bolaligi oson, ravon kechgan emasligi, hayot deb atalmish ulkan maktabning qozonida, taloto'plarida qaynab toshganligiga bevosita guvoh bo'lamiz. Uning bolalik xotiralari bilan bog'liq bo'lgan iqrorlari shoira Bashorat Otajonova bilan bo'lgan suhbatda oydinlashadi va shoir bu haqida shunday deydi: *“Yoshim bolaligidan uzoqlashgan sayin, u menga shuncha yaqinlashib kelmoqda. Ko'pincha, uning xayollari bilan yashayman. Siyratimnida, suratimnida yolqinlantirib yuboradi xotiralar”* [Yo'ldosh Q, 2025: 9].

Keyingi o'rinda keltirilgan “Odamlar orasida” nomli maqolani “Qaynoqlar” ni mantiqiy davomi deyish mumkin. Kitobxon qiziqishini uyg'otgan jihatlardan biri shuki, Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshev Azim Suyun hayoti, xarakter xususiyati bilan bog'liq masalalarni yoritishda real hayotiy haqiqatlarga tayangan. Shoirning tog'u-toshlar orasida ulg'ayishi, yetti yoshida emas, to'qqiz yoshida maktabga borishi, namoz o'qib, ro'za tutganligi bois maktabdan haydalishi, majburiyat sabab ro'zani yomonlab she'r yozishi, bir sinfdoshi tufayli “o'g'ri”ga aylanishi, olti yil deganda erishgan qahramonligi ToshDUning jurnalistika fakulteti sirtqi bo'lim talabasi bo'lishi, ikki marotaba o'limdan qolishi, sharoit taqozosi tufayli turli yumushlarni bajarishi kabi hayotiy haqiqatlar kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Kitobning 2-bo'limi “Ijodning tikanakli yo'lida” deb nomlanishi majoziy ma'no kasb etadi. Azim Suyun lirikasida mavzular rang-barangligi, turli mavzularning qamrab olinishi, xususan, ota-ona, do'stu-birodar, Vatan, sevgi-muhabbat, yurtga sodiqlik, xalqchilik kabilarning birlamchi xususiyat kasb etishi qalamga olingan. Darhaqiqat ochun – cheku chegarasiz va g'oyat serqatlam hamda murakkab. Ammo odam ko'nglining murakkabligi va cheksizligi oldida u o'ta kichik bo'lib qoladi. Azim Suyun ijodida ana shu cheksiz ko'ngil tovlanishlari g'oyat o'ziga xos yo'sinda aks ettirilishi tahlilga tortiladi. Shoir she'rlari o'z poetik qudrati bilan odamni bir qadar yuksaltirishga, uning ichini

kengroq, tuyg'ularini pok, orzularini balandlarda his eta olishi ifoda etiladi. Azim Suyunning “Men sizni sevaman” she'ri, garchi bevosita ma'lum va mashhur sohir tuyg'u – sevgi tasviriga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, insonlar orasidagi sunosabatlar yo'sini to'g'risida bo'lgani va to'laligicha pokiza tuyg'ular zamzamasiga asoslangani bilan diqqatga sazovor ekanligi olim tomonidan yuqori baholanadi. Shu o'rinda Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshevni sinchi olim deb atagim keldi. Boisi adabiyot deb atalmish katta bir ummonning barcha qatlamlarida zuhur etilgan ma'nolarni ilg'ay oladi va topqirligi bilan o'z o'quvchisiga osongina, yengilgina uqtiradi. Kitobxon ilg'amagan mayda detallar zamirida ulkan ma'nolar mujassam ekanligini yetkazadi.

“Shaxslik qo'rg'oniga yo'l”ni o'qir ekanmiz, Azim Suyun xarakter xususiyati, shaxsiga doir biz bilmagan jihatlar bilan tanishamiz. Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshev bu haqida shunday yozadi: *“Azim Suyun – tabiatan og'ir-bosiq, mulohazali, bir qadar ehtiyotkor, hatto siyosatga munosabat borasida salgina qo'rqoqroq odam deyish mumkinligiga qaramay, bir joyda o'tirolmaydigan, yo'l yurishni, dunyo kezishni yaxshi ko'radigan shaxs edi”* [Yo'ldosh Q, 2025: 106].

Yana bir o'rinda alohida qayd etadi: *“Azim Suyun fe'li g'alati edi: ba'zi masalalarda juda yangichi – yangi qulayliklar, yengilliklarni birinchi bo'lib qo'llardi. Ayrim yumushlarda esa judayam eskichi – qulaylikni ham, yangilikni ham bo'sag'asiga-da yaqinlashtirmasdi. Shoirning istaklarini tushunish ham qiyin bo'lardi: bir qarasang, turmushdagi eng mayda ikir-chikirlarga ham e'tibor qiladigan, har bir narsaning rangidan tortib joylashish tartibiga qadar ko'nglidagiday bo'lmasa, tinchimaydigan injiq odam, bir qarasang, xuddi tog'liq yurtdoshlari kabi suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib ketadigan beparvo jo'mard”* [Yo'ldoshev, 2025: 107].

“Ilk yurish” maqolasida 2002-yilning 18-mayida Q.Yo'ldoshev, Azim Suyun, shoir Tursun Ali, haydovchisi Abdurauf, Azim Suyunning bo'lasi tadbirkor Bozorboy, qishloqdoshi rassom Komil Jontoylarning ilk marta Nakurt qishlog'iga qilingan safarlari haqida so'z boradi. Nakurtliklarning odamiyligi, mehmondo'stligi, samimiy sofdilligi, to'pori jo'nligi, chapani mehridaryoligi, nihoyatda o'ziga to'q yashashligi, qay bir eshikka bormasin, albatta, shoir va uning hamrohlari tashrif buyurilgan xonadonda ularga atab qo'y so'yilishi, uning eti bilan mehmon qilinishi, mehmon uchun yozilgan dasturxonga chakki (suzma)ni tortilishini or deb bilishi, “O'zbekistonda Azim Suyun singari serurug', u kabi yaqinlari tomonidan qadrlanadigan boshqa birorta shoir yo'q” ligi bayon qilinadi [Yo'ldoshev, 2025: 115].

“Katta Qamishloq yo'lida” maqolasida ham 2004-yilning 9-11-oktabr kunlari Q.Yo'ldoshev bilan A.Suyunning Nakurtga qilingan navbatdagi safari hikoya qilinadi. Ularning bu galgi hamrohi professor Nurilla Ahmedov bo'ladi. Nakurtning go'zalligini ko'rib, yuksak tog'larga hayratlari oshib, toza havodan bahramand bo'lib qaytishadi.

Navbatdagi o'rinlarda keltirilgan maqolalarda (“O'zga maskanlarda”, “Tushunilish istagi”) ham hamrohlarning safar taassurotlari, safar chog'ida olim tomonidan Azim Suyunning o'ziga xos shaxsiga doir individual xususiyatlari kashf etib borilaveradi. Azim Suyun suvrati va siyratiga xos: ovozinig qudrati, nutqining estetik ta'sirchanligi, safarlar chog'ida eng yaxshi hamdamligi, ulfatligi, kattalar bilan tillasha olish san'ati, bag'rikeng va ochiq odamning eshigi hamisha ochiqligi, ta'sirchan va ishonuvchan, tog'u-toshlarni, undagi jonli-jonsiz yaratilarni teran bilishi kabi ijobiy fazilatlari oydinlashadi. Qozoqboy Yo'ldoshev bir o'rinda Azim Suyunning kitobxon uchun noma'lum bo'lgan sifatlarini ochiqdaydi: *“Tashqaridan qoyaday cho'ng va toshday qattiq odamga o'xshab ko'rinadigan Azim Suyun – aslida gulday nozik va salga yaralanadigan kishi. Tabiatining bu jihatini uning o'e'rlaridan bilsa bo'ladi. Lekin turmush tarzi, maishiy tutumlarida, gap-so'zlarida bu holni mutlaqo bildirmaydi. U o'zini juda qahri qattiq, hech narsadan tap tortmaydigan kishi qilib ko'rsatishga urinadi”* [Yo'ldosh Q, 2025: 141].

Ustoz Qozoqboy Yo'ldoshevning “Azim Suyun shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilar” nomli ilmiy-adabiy bitigining tili haqida so'z borganda, shuni aytish kerakki, u oson va tez, xuddi badiiy asar o'qigandek bir o'tirishda yoki bir urinishda ravon o'qiladi. Matnda keltirilgan “o'tboshi”, “zo'ldirli yozg'ich”, “tanig'” kabi ayrim so'z va topilmalarning o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilgani asar jozibasini oshirishga va uning o'qimishli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Ustoz tomonidan aytilgan Azim Suyun haqidagi bitiklar uning muxlislarini, kitobxonlarni ruhan u bilan yaqinlashtirishga, anglash va idrok etishga ko'mak beradi.

Adabiyotlar:

1. Qozoqboy Yo'ldosh. Azim Suyun shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilar. Adabiyot nashriyoti. – T.: 2025. – B. 9-141.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Yangi asr avlodi. – T.: 2006. – B. 546.
3. Kuylieva, G, Saymuratova, I, Jurakulov, S. (2024). Interpretation of man and universe in historical epics. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-9.
4. Mamatkulov, M, Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
5. Tursunkulovna, S. I. (2022). Synthesis of national and postmodernist styles in Uzbek independence novels. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 433-436.
6. Tursunkulovna, S. I., Lutfiniso, D, Omonullo, M. (2020). Imitation of Thoughts and Feelings—Artistic Means of Psychology. *Solid State Technology*, 63(4), 453-457.
7. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 5(81), 34-38.



8. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 4-10.
9. Kuyliyeva, G. N. (2023). CHARACTER IMAGERY AND POETIC EXPRESSION IN MUHAMED ALI’S TETRALOGY “ULUG ‘SALTANAT”. *Confrencea*, 6(6), 314-319.
10. Nematullaevna, T. D. (2024). THE WRITER’S CREATIVE LABORATORY AND THE PROBLEM OF AESTHETIC INTERPRETATION. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 66-70.
11. Fayzullayeva, A. (2010). Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk’ün Şiir Dünyası. *Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi*, 10(2), 173-184.
12. Kholbekovna, F. O. (2021). THE ISSUE OF ARTISTIC IDEA IN POETRY. *European Scholar Journal*, 2 (4), 233-236.
13. Turayeva, D., Sariboyeva, M., & Primov, A. (2024). FUNDAMENTALS OF CREATIVE LABORATORY. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
14. Yerjanova, S, Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832
15. Тураева, Д. Н., Саймуратова, И. Т, Туйчиева, З. Х. (2024). ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ОБРАЗЫ. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 198-202.
16. Nematullaevna, D. T. (2022). Artistic interpretation of amir temursimge in national prose during the independence years (in the sample of the play “libra”(“mezonburji”) after asaddilmurod. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 426-429.
17. Jo‘raqulov Sardor O‘ZBEK HIKOYASIDA MISTIK OBJALARNING IZODA ETISHI // EJTI. 2024. №1-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/expression-of-mystical-images-in-uzbek-storyworking> (ma’lumotlar manzili: 01.02.2026).